



# Tashqi savdo


(dastlabki ma'lumot)

2019 yil yanvar

2019 yil yanvar oyida Surxondaryo viloyatida Tashqi savdo aylanmasi 30616,0 ming AQSH dollari tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 131,6 foizga o'sdi, shu jumladan eksport 9234,6 ming AQSH dollari tashkil etib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 136,5 foizga ko'paydi, import esa 21381,9 ming AQSH dollari tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,5 foizni tashkil etdi. Tashqi savdo saldosini minus -12147,3 ming AQSH dollari tashkil etdi.

MDH davlatlari bo'yicha tashqi savdo aylanmasi 10876,1 ming AQSH dollari tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,0 foizni, shu jumladan eksport MDH davlatlarida 2503,4 ming AQSH dollari tashkil etib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 198,1 foizga o'sdi. Import esa MDH davlatlari bo'yicha 8372,7 ming AQSH dollari teng bo'lib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 119,0 foizni tashkil qildi. Tashqi savdo saldosini MDH davlatlari bo'yicha minus -5869,3 ming AQSH dollari tashkil etdi.



Shu bilan birga viloyatning Evropa va uzoq davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 19740,4 ming AQSH dollari tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 131,9 foizni tashkil qildi. Eksport 2503,4 ming AQSH dollari tashkil etib, o'tgan yilning mos davrida 122,4 foizga, import esa 13009,2 ming AQSH dollari tashkil qildi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 137,4 foizga o'sdi. Evropa va uzoq davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi saldosini minus -6278,0 ming AQSH dollari tashkil etdi.



# Tashqi savdo

Oziq-ovqat mahsulotlari Eksport tarkibida asosiy ulushni ya'ni 60,2 foizni tashkil etadi. Eksport hajmini 5560,9 ming AQSH dollarni oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,0 foizni tashkil qildi. Bu esa meva-sabzavod mahsulotlarining 195,8 foizga ko'p ekport qlinganligi hisobidan.


Import tarkibi asosan mashina va asbob uskunalar 52,9 foizni, oziq-ovqat mahsulotlari 22,4 foizni, Kimyo mahsulotlari Undan tayyorlangan buyumlar – 5,8 foizni tashkil qildi.



## Xizmatlar eksporti



*Eksport tarkibining umumiy hajmidan 1,1 foizni xizmatlar tashkil qiladi,*



# Tashqi savdo

2019 yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasi Saldosi minus 12147,3 ming AQSH dollari tashkil etdi, shu jumladan MDH davlatlarida esa minus 5869,3 ming AQSH dollari, boshqa davlatlar bilan minus 6278,0 ming AQSH dollari tashkil etdi.


## Tashqi savdo aylanmasi tarkibi

	ming. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
<b>Eksport</b>	<b>9234,6</b>	<b>136,5</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	5560,9	114,0	60,2
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	8,0	2,2 m	0,1
xizmatlar	10,6		0,0
boshqalar	3566,5	129,5	100,0
<b>Import</b>	<b>21381,9</b>	<b>129,5</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari	4779,8	97,7	22,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	1250,3	68,2	5,8
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	85,8	31,4 m	0,4
qora va rangli metallar	279,1	23,2	1,3
mashina va asbob-uskunalar	11301,9	166,3	52,9
xizmatlar	99,2	72,7	1,1
Boshqalar	3674,4	2,4m	17,2

# Tashqi savdo


## *Surxondaryo viloyati savdo aylanmasi Ko'proq ulushga ega bo'lgan davlatlar.*

Jami tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlaridan ko'proq ulushi Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston va Ukrainaga ya'ni 34,1 foizni, boshqa davlatlarda esa — Xitoy, Pokiston, Koreya Respublikasi, Afg'oniston, Latviya, Turkiya, Litvaga esa 58,0 foizni tashkil qildi.




## Jami eksport-import hajmida eng katta ulushga ega bo'lgan mamlakatlar, foizda

### Eksport



### Import



# Tashqi savdo


2019 yil yanvar oyida meva-sabzavod mahsulotlari eksporti 4911,0 ming AQSH dollari yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 195,8 foizni tashkil etadi. Meva-sabzavod mahsulotlarining jami eksportga nisbatan ulushi 53,2 foizni tashkil qildi. Jami meva-sabzavod mahsulotlarining 3,8 foizini meva va rezavorlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,0 foizga kamaygan), 82,0 foizni sabzavodlar (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 barobarka o'sgan), 5,9 foizni uzum (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 martaga o'sgan), 437,2 foizni yeryong'oq (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172,0 foizga o'sdi) tashkil etdi.

Meva-sabzavod mahsulotlari eksportida asosiy sheriklar Pokiston (jami meva-sabzavod mahsulotlaridan 41,6%), Afg'oniston (jami hajmidan 29,3%), Qozog'iston (jami hajmidan 13,0%), Rossiya (jami hajmidan 8,9%), Xitoy (jami hajmidan 5,1%), Boshqa davlatlar (jami hajmidan 2,1%) tashkil qildi.



**2019 yil yanvar oyining jami eksport hajmining 53,2 foizini meva-sabzavod mahsulotlari eksporti tashkil qildi.**

## Yirik hamkor davlatlar bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlashning eksportdagi ulushi, foizda



# Tashqi savdo

## To'qimachilik mahsulotlari eksporti



	ming. AQSh dollari	umumiy hajmga nisbatan foizda	o'tgan yilga nisbatan foizda
<b>To'qimachilik mahsulotlari</b>	<b>3552,0</b>	<b>100,0</b>	<b>2,7m</b>
shu jumladan:			
Paxtadan yigirilgan ip	3130.7	88,1	2,6m
Ipak	421.3	11.9	-

**2019 yil yanvar  
oyida jami eksport  
hajmining 38,4  
foizini tekstil  
mahsulotlari tashkil  
qildi. Tekstil  
mahsulotlari ekporti  
3552,0 ming AQSH  
dollarni tashkil etib,  
o'tgan yilning shu  
davriga nisbatan 2,7  
martaga ko'paydi.**



**Davlat statistika qo'mitasi  
Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

**Bo'lim boshlig'i  
J.Yuldashev**

71) 230-80-44

